

## Ijro Etuvchi Hokimiyat Organlarining Shaxsning Qulay Muhitga Bo'lgan Huquqini Ta'minlash Sohasidagi Vakolatlari

*Amaniyazova S.B.<sup>1</sup>, Shagilova G. K.<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxslarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash va bu sohada ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari qonunchilik normalari va olimlar qarashlari asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Atrof-muhit, ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, shaxsiy huquqlar, ekologik siyosat.

Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq insonning asosiy huquqlaridan biridir. Yashash huquqi qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqni birlashtiradi, birinchisi, shubhasiz, inson yashayotgan atrof-muhitning holati bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar qulay atrof muhitga bo'lgan huquq subyektlari hisoblanadi.

Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqning eng samarali rioya etilishi va himoya qilinishini ta'minlash uchun uning mazmunini aniqlash katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Insonning atrof-muhitga bo'lgan huquqini ikki aspektda: obyektiv va subyektiv ma'noda ko'rib chiqish mumkin. Subyektiv ma'noda qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq - bu har bir insonning qulay atrof-muhitdan, yashash muhiti sifatida qonunda belgilangan doirada foydalanish imkoniyatidir. Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq obyektiv ma'noda institut, ya'ni ko'rib chiqilayotgan subyektiv huquqni tartibga solish va amalga oshirish yuzasidan shakllanadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidir.

Yuridik adabiyotlarda "qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq subyektiv huquq, qulay atrof-muhit esa huquq obyektini hisoblanadi" deb ta'kidlanadi<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 30-sentyabrda "Inson huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasi"ni imzoladi, uning 29-moddasida shunday deyiladi: "Inson qulay atrof-muhitga ega bo'lish va ekologik buzilishlar tufayli uning sog'lig'iga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash huquqiga ega"<sup>4</sup>.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid normalar O'zbekiston Konstitutsiyasining 62-moddasida fuqaroning majburiyati sifatida mustahkamlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida ushbu norma matni aynan takrorlanadi<sup>5</sup>.

Ba'zi mualliflarning ta'kidlashicha, qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq shaxsning ekologik-huquqiy maqomining elementi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ushbu huquq nafaqat shaxsning ekologik-huquqiy maqomi, balki konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining ham elementini tashkil etadi, bu esa ushbu huquqning yetarlicha yuqori darajada mustahkamlanishi bilan bog'liq.

G.K.Rustamovanning<sup>6</sup> nuqtayi nazariga ko'ra, shaxsning konstitutsiyaviy maqomi to'rtta asosiy elementdan, ya'ni inson va fuqaroning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi; mamlakat fuqaroligi; asosiy

<sup>1,2</sup> Qoraqalpoq Davlat Universiteti o'qituvchilari

<sup>3</sup> Пирбудагова Д.Ш., Камилова Д.В. Содержание права человека и гражданина на благоприятную окружающую среду в законодательстве России// Юрид. Вестник ДГУ. 2018 Т.26 №2

<sup>4</sup> Inson huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1998

<sup>5</sup> Конституция Республики Каракалпакстан // <https://karakalpakstan.uz/ru/page/show/27>



huquq va erkinliklar, shuningdek inson va fuqaroning majburiyatlari va, nihoyat, shaxs maqomining kafolatlari va himoyasi prinsiplaridan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boylik va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish, ularning oqibatlarini yumshatish sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining oliy ijro etuvchi organi hisoblanadi ko'rsatib o'tilgan qonunning 14-moddasiga binoan Vazirlar Mahkamasining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari mustahkamlanadi, ya'ni:

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish, ekologik osoyishtalikni ta'minlash choralarini ko'radi;

tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish hamda tabiatdan foydalanishni tartibga solish bo'yicha faoliyatni tashkil etadi;

tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish hamda respublika va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni ro'yobga chiqarishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yirik avariya va halokatlarning, shuningdek tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish choralarini ko'radi.

Shunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasiga shaxsning qulay muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash sohasidagi boshqa barcha vazirliklarning koordinatori roli berildi.

Aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bunday hajmdagi normalar tuzish masalalari bilan shug'ullanmasligi kerak, masala juda munozarali, hukumat tomonidan qabul qilingan bunday hujjatlar soni, birinchi navbatda, uning boshqa vakolatlari, masalan, iqtisodiyot, byudjet, moliya, ijtimoiy sohada mavjudligi bilan bog'liq, bu esa o'z navbatida shaxsning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish bilan bevosita aniq aloqaga ega va barcha o'zaro bog'liq omillarni hisobga olgan holda, ushbu faoliyat sohasida shaxs huquqlarini himoya qilishga qaratilgan siyosatni shakllantirishga imkon beradi<sup>7</sup>.

**Shu o'rinda, Vazirlar Kengashining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari ham sanab o'tish mumkin, xususan:**

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish, ekologik osoyishtalikni ta'minlash choralarini ko'radi;

tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish hamda tabiatdan foydalanishni tartibga solish bo'yicha faoliyatni tashkil etadi;

tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish hamda respublika va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni ro'yobga chiqarishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

<sup>6</sup> Рустамова Г.К. Значение правового статуса личности в контексте проводимых реформ в Республике Узбекистан // Экономика и социум. 2022. №11-2 (102). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/znachenie-pravovogo-statusa-lichnosti-v-kontekste-provodimyh-reform-v-respublike-uzbekistan>.

<sup>7</sup> Аманиязова Света. (2022). Рақамлаштириш жараёнида ижро этувчи ҳокимият органлари ваколатларини такомиллаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши мисолида). Innovations in Technology and Science Education, 1(1), 253–265. Retrieved from <http://humoscience.com/index.php/itse/article/view/36>



yirik avariylar va halokatlarning, shuningdek tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish choralari ko'radi.

Shuningdek, hukumat ta'lim sohasidagi siyosatni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq fanlarni o'rganishga ko'proq e'tibor qaratish, ushbu mavzu bo'yicha huquqiy jihatdan tadqiqotlarni ishlab chiqishga yo'naltirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2022 yil 24-dekabrda PF-269-son farmoni bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati:

- Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish va iqlim o'zgarishi sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Tabiatni muhofaza qilish, jumladan, atmosfera havosi, er, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda davlat ekologik nazoratini yuritish;
- O'rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko'paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish va ulardan oqilona foydalanilishini ta'minlash
- Hidrometeorologiya xizmatini tashkil etish, iqlim o'zgarishi va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringini yuritish;
- Tabiatni muhofaza qilish borasida fuqarolik jamiyati institutlari hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni rivojlantirish, ekologik tarbiya, targ'ibot, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash ishlarini tizimli tashkil etish;
- "Yashil" o'sish tamoyillarini joriy etish, atrof-muhitga zararli tashlanmalarni qisqartirish hamda inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirini kamaytirish;
- Tabiatni muhofaza qilishga raqamli texnologiyalarni joriy etish, monitoring yuritishda inson omilini qisqartirish va avtomatlashtirish tizimini yo'lga qo'yish;
- Ekoturizm, ov va safari turizm sohasini yanada rivojlantirish, o'rmon xo'jaliklari va milliy tabiat bog'larining (qo'riqxonaga aylantirilgan zonalar bundan mustasno) imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda tegishli infratuzilma obyektlarini yaratish, xorijiy va ichki sayyohlarga munosib shart-sharoit yaratish va ularga xizmat ko'rsatilishini ta'minlash;
- Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish uchun ta'sirchan choralarni qo'llash;
- Atrof-muhit holatini kuzatib borish, atrof-muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga tahdid solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlash;
- Amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning tabiatni muhofaza qilish standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini nazorat qilish va qonuniy choralarni ko'rish;
- Yuridik va jismoniy shaxslarning tabiatni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, ular tomonidan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash;
- O'rmonlardan oqilona foydalanish ustidan nazoratni o'rnatish, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, o'rmonlarning yer ustida va aviatsiya yordamida qo'riqlanishini tashkil etishni nazorat qilish;



- Turizm sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohada qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Turizm sohasiga oid kompleks dasturlarni ishlab chiqish, turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish hamda turizm sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Mamlakatning turizm salohiyati ko‘lamini kengaytirish, turizmni iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirish, turizm turlarini ko‘paytirish, yangi turizm yo‘nalishlarini ishlab chiqish hamda turizm imijini mustahkamlash.

Shaxsning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlashga ko‘plab ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishi qaratilgan bo‘lib, ularning barchasi ko‘rib chiqilayotgan huquqlar guruhini ta‘minlash bo‘yicha funksiyalarni bilvosita yoki bilvosita amalga oshiradi. Shaxsning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini sifatli amalga oshirishni nazarda tutish uchun alohida sohalarni batafsil tartibga solish kerak.

O‘zbekiston Respublikasining ekologik siyosati respublikada ekologik xavfsizlikni va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta‘minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning atrof-muhitga zararli ta‘sirining oldini olish, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, chiqindilarni to‘plash, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko‘mish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan.

#### **Foydalangan adabiyotlar róyxati:**

1. Пирбудагова Д.Ш., Камилова Д.В. Содержание права человека и гражданина на на благоприятную окружающую среду в законодательстве России// Юрид. Вестник ДГУ. 2018 Т.26 №2
2. Inson huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 1998
3. Конституция Республики Каракалпакстан // <https://karakalpakstan.uz/ru/page/show/27>
4. Рустамова Г.К. Значение правового статуса личности в контексте проводимых реформ в Республике Узбекистан // Экономика и социум. 2022. №11-2 (102). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/znachenie-pravovogo-statusa-lichnosti-v-kontekste-provodimyh-reform-v-respublike-uzbekistan>
5. Аманиязова Света. (2022). Рақамлаштириш жараёнида ижро этувчи ҳокимият органлари ваколатларини такомиллаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши мисолида). *Innovations in Technology and Science Education*, 1(1), 253–265. Retrieved from <http://humoscience.com/index.php/itse/article/view/36>
6. Г.К.Шагилова С.И.Бахиев. ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ.: Zenodo, 10 август 2024 г., doi:10.5281/zenodo.13292965.

